XALQ DEPUTATLARI YANGIARIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-mart VII-7-37-12-179-K/25 Yangiariq tumani

Yangiariq tumanidagi mahallaning nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993-y, 9-son, 320 modda;), “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y, 17-son, 219-modda) va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y, 41-son, 448-modda) O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegeralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ulaming nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y, 10-son, 107-modda), “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqidagi (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2022-yil 2-noyabr O‘RQ-799-sonli) qonunlariga asosan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga “G‘altak” mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2024-yil 30-sentabrdagi 12-sonli yig‘ilish bayonnomasini o‘rgangan holda tumandagi aholi punkti tarkibiy qismini (mahallalar, shoh ko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, xiyobonlar) (keyingi o‘rinlarda matnda “geografik obyektlar” deb yuritiladi) qayta ko‘rib chiqish natijalaridan kelib chiqib, xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi hamda Xorazm viloyati komissiyasining taklifiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni ekspertizasidan o‘tkazish” ekspert komissiyasining 2024-yil 17-dekabrdagi 05-19-01-5882-sonli xulosasi ma’qullansin.

2. Ilovaga muvofiq tumandagi “G‘altak” mahalla fuqarolar yig‘inining nomi “Turkiston” mahalla fuqarolar yig‘ini deb qayta o‘zgartirilsin.

3. Xorazm viloyati Davlat kadastrlar palatasi Yangiariq tuman filiali, tuman arxitektura va qurilish bo‘limi, fuqarolar yig‘ini bilan birgalikda tumandagi mahallaning nomi o‘zgarishi munosabati bilan tuman bo‘yicha tasdiqlangan yagona zamonaviy milliy dizayn asosida bir oy muddatda geografik obyekt nomi qayd qilingan peshlavhani o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Belgilansinki, geografik obyekt nomi qayd qilingan peshlavha o‘rnatish hamda zarur hujjatlarni yangilash bilan bog‘liq sarf-xarajatlar qonunda belgilangan tartibda mahalliy byudjet mablag‘lari va homiylar hisobidan qoplansin.

5. Yangiariq tumani statistika bo‘limi boshlig‘i (T.Bekchanov) ushbu qarordan kelib chiqib, “G‘altak” mahalla fuqarolar yig‘ini o‘rniga “Turkiston” mahalla fuqarolar yig‘ini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yuritsin.

6. Ushbu qaror “Yangiariq ovozi” gazetasi va Yangiariq tumani hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (R.Rajabova) va tuman hokimining o‘rinbosari (D.Matyaqubov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

MATNAZAROV
ZAFARBEK
BAHADIROVICH

Xalq deputatlari Yangiariq tumani
Kengashining
2025-yil 19-martdagi
VII-7-37-12-179-K/25 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat (tuman) komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Yangiariq tumani	G‘altak	Sharq, Baraka, Turkiston	**“Turkiston”** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.